

**YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI****Jo'rayeva Sitora Sherah qizi****Jumartova Aziza Abdurahmon qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Anotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy dunyoqarashining shakllanish jarayonida axborot texnologiyalarining tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari — internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta'lim platformalari, raqamli ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashi shakllanmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalarning salbiy ta'siri, axborot xurujlari va ma'naviy bo'shliq muammolari ham yoritilgan. Maqolada yoshlarni raqamli madaniyatga o'rgatish, axborot savodxonligini oshirish va milliy qadriyatlarga sodiq bo'lishga yo'naltirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение информационных технологий в формировании духовного мировоззрения молодежи. Современные технологии — Интернет, социальные сети, онлайн-образование и цифровые СМИ — оказывают существенное влияние на мышление, ценности и мировоззрение молодых людей. Также освещаются негативные стороны технологического воздействия, включая информационные угрозы и духовный кризис. Особое внимание уделяется необходимости формирования цифровой культуры, повышения информационной грамотности и укрепления национальных ценностей среди молодежи.

Anotation

This article analyzes the role and importance of information technologies in shaping the spiritual worldview of youth. Modern technologies — including the Internet, social networks, online education, and digital media — influence young people's thinking, values, and worldview. At the same time, the negative impacts of technology, such as information attacks and moral degradation, are also discussed. The article emphasizes the need to enhance digital literacy, promote cultural awareness, and strengthen national identity among the youth in the digital age.

Kalit so'zlari: yoshlar, ma'naviyat, dunyoqarash, axborot texnologiyalari, internet, raqamli madaniyat, axborot savodxonligi.

**KIRISH.**

Hozirgi globallashuv va raqamli inqilob davrida yoshlar hayoti axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot vositalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar va ma'naviy hayotiga chuqur kirib bormoqda. Shu sababli, axborot texnologiyalarining ta'siri ikki qirrali — u ma'naviy yuksalish imkoniyatlarini yaratish bilan birga, ayrim hollarda ma'naviy inqiroz xavfini ham yuzaga keltiradi. Axborot texnologiyalari yoshlarning bilim doirasini kengaytiradi, zamonaviy dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishiga, o'z fikrini erkin ifoda etishiga imkon beradi. Onlayn ta'lim platformalari, elektron kutubxonalar, ilmiy bloglar va virtual muloqot vositalari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnologiyalar yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va tarixiy merosni o'rganishga undaydigan ko'plab ijobiy kontentlarni ham tarqatish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining cheksiz imkoniyatlari bilan birga, ularning noto'g'ri qo'llanilishi ma'naviy inqirozga sabab bo'lishi mumkin. Soxta axborot, ma'naviy buzuvchi targ'ib qiluvchi kontentlar, kiberjinoyatlar va axborot xurujlari yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq bog'lanish real hayotdan uzilish, ruhiy siqilish va jamiyatdan begonalashuv kabi salbiy holatlarga olib kelmoqda.

Yoshlarni raqamli madaniyat asoslariga o'rgatish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va axborot savodxonligini oshirish — ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari, oilalar va ommaviy axborot vositalari bu jarayonda o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Milliy qadriyatlar, an'analar va zamonaviy axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish — yoshlar ma'naviy dunyoqarashini sog'lom yo'nalishda shakllantirishning eng samarali yo'lidir. XXI asr axborot texnologiyalari va axborot-kommunikasiyalar asri sanaladi. Ayniqsa, o'n besh - yigirma yil ichida texnologiya shiddat bilan rivojlandi. Kompyuter texnologiyalari imkoniyati bir necha bor ortdi. Uyali aloqa vositalari, optik tolali moslamalar, global internet texnologiyalari imkoniyatlari sanog'iga yetish qiyin. Ahamiyatlisi, rivojlangan texnologiyalarjamiyat hayotining barcha jabhasini oldi.

Axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi, bu sohadagi ishlarni jonlantirib yubordi, ya'ni endigi hayot nafaqat axborotlar, axborot texnologiyalari, balki axborot tizimlarini yaratishni taqozo etib qoladi va ulardan bilim bazalari, vazifalar, mantiqiy xulosalarni yechuvchi mashina kabi xizmat tizimlarini ham o'z ichiga olishini talab qilmoqda. Bu talablarni hal qilish esa ijtimoiy islohotlarga bog'liqdir[11].



Axborot texnologiyalari iborasidagi texnologiya lotincha “thexnoz” san’at, hunar, soha va “logos” fan degan ma’noni bildiradi. Ya’ni, texnologiya biror vazifani bajarishda uning turli usullari ko’rinishini bildiradi. Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo’lib, unga informatika va hisoblash texnikasi asoslari fanidan ma’lum bo’lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari internet kabi tushunchalardan tashqari qaror yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari axborot tizimlarini boshqarish axborot uzatish tizimlari, ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimi bilimlar ombori kiradi. Kompyuter tarmoqlarining paydo bo’lishi sabablaridan biri resusrlardan hamkorlikda foydalanish, aholida kompyuter imkoniyatini kengaytirishdir. Axborot texnologiyalari iborasidagi texnologiya lotincha “thexnoz” san’at, hunar, soha va “logos” fan degan ma’noni bildiradi. Ya’ni, texnologiya biror vazifani bajarishda uning turli usullari ko’rinishini bildiradi. Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo’lib, unga informatika va hisoblash texnikasi asoslari fanidan ma’lum bo’lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari internet kabi tushunchalardan tashqari qaror yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari axborot tizimlarini boshqarish axborot uzatish tizimlari, ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimi bilimlar ombori kiradi. Kompyuter tarmoqlarining paydo bo’lishi sabablaridan biri resusrlardan hamkorlikda foydalanish, aholida kompyuter imkoniyatini kengaytirishdir[10].

Hozirgi davrda pedagogikada innovatsion ta’lim usullarini va dasturiy-texnik vositalarini qo’llashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu yo’nalish bo’yicha 2013-14 yillarning o’zida bir qancha halqaro anjumanlar o’tkazilganki, ularda muhokama qilinayotgan masala va muammolar bu sohaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. Misol sifatda O’zbekistonda (oktyabrda), Tayvanda (avgustda), Evropada mamlakatlarida (may-iyun oylarida), AQSH da (iyunda) va Birlashgan Arab amirliklarida (oktyabrda) o’tkazilgan innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llash masalalariga bag’ishlangan konferensiyalarni ko’rsatishimiz mumkin. Ammo shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, bizning jamiyatimizdagi ko’pchilik insonlar o’qituvchilarni kunlar, xaftalar va oylar davomida o’qitiladigan fan bo’yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko’rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maromda qandaydir bilimlar majmuasini o’quvchilarga singdiradigan zerikarli mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko’rsatma va topshiriqlar berishlari, qanday dasturiy-texnik vositalardan foydalanishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko’pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Yillar davomida ta’lim berishning bir qancha usullari, uslubiyati, texnologiyasi va dasturiy-texnik vositalari



vujudga kelganki, ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ba’zi bir ta’lim berish uslublari yosh bolalarning bilim olish jarayonini o‘rganish asosida tashkil etilgan bo‘lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro‘y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan[9].

Bugungi kun nigohida O‘zbekistonning jahon hamjamiyat oldidagi mavqei hartomonlama ustuvordir. Buni nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy hayot darajasi, balki ma’naviy-ma’rifiy sohalarning tubdan isloh qilinayotganida ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, 2019 yil 31 dekabrda e’lon qilingan Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni misol qilishimiz mumkin. Konsepsiyada yoshlar tarbiyasida vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy imunitet, mehr-oqibatlik, ma’suliyatlik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish lozim ekanligi aytib o‘tilgan. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirish uchun umumta’lim maktablarida milliy g‘oya tamoyillarini tarbiya jarayonlariga chuqur singdirish, o‘quvchilarga milliy tarbiya asoslarini to‘laqonli tushuntirish, ajdodlarimizning tarbiyaga oid ta’limotlarini yoshlarga etkazishga qaratilgan “Tarbiya” fanining tashkil etilayotgani muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, Germaniyada ushbu masalalar “Yoshlarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Inson qadr-qimmatini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Teleradioeshittirish va telemediaxizmatlar sohasida yoshlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi davlat shartnomalari orqali tartibga solinadi. Nosog‘lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, xalqaro amaliyotda “Kiber jinoyatlar to‘g‘risida”gi Konvensiya, “Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida”gi Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi BMT Konvensiyasini, “Yoshlarni himoyalash to‘g‘risida”gi Germaniya, “Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta’siridan himoyalash to‘g‘risida”gi Litva va “Bolalarning sog‘lig‘i va rivojlanishiga ziyon etkazuvchi axborotdan himoyalash to‘g‘risida”gi Rossiya qonunlarini tilga olish mumkin[8].

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatori davlatimizning milliy qonunchiligida ham yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar ma’n etilishi”, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda “Pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va



huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish ta'qiqlanishi" belgilab berilgan. Tezkor Internet orqali qabul qilinayotgan, axborotlarning aksariyat foydalanuvchilari yoshlar hisoblanadi. Eng achinarli tomoni Daryo.uz. saytlari xabariga ko'ra, O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 milliondan oshdi. O'zbekistonda ta'lim portali hisoblangan ziyonet.uz, muloqot.uz va shu kabi jami saytlarda ro'yxatdan o'tganlar jamlanganda ham birgina ijtimoiy tarmoqqa kiruvchilar miqdoriga tenglasha olmasligi achinarli holatdir[7].

XULOSA.

Axborot texnologiyalari yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos imkoniyatlarni yaratmoqda. Ularni to'g'ri yo'naltirish, foydali kontentlardan unumli foydalanish va milliy qadriyatlar asosida axborot madaniyatini rivojlantirish — jamiyatning barqaror ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim omillardandir. Xulosa qilib shuni rivojlanib borayotgan O'zbekistonimizda yoshlarimizning bilim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan "notoza va noxolis" axborotlarning oldini olish, sara ma'lumotlar topib foydalanishlari, xususan nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Internet madaniyatini avvalo kattalar, ota-onalar, asosiy o'rinda pedagoglar o'zlaridan boshlasalar yana ham yaxshi, kutilayotgan natijalarga erishish mumkin. Shunday ekan yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir[6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi farmonlari.
3. "Axborot texnologiyalari to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 1-oktabr o'qituvchi va murabbiylari bayramidagi tantanali nutqi Toshkent 2019.
5. Muxammadiyeva, O., & Annaguliyev, J. (2023). The importance gender equality in government ruling. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 9, pp. 21-24).
6. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH



TEKNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.

7. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 499-504.

8. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.

9. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELI. *Research Focus*, 3(11), 117-123.

10. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024* (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).

11. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).